O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2022 - yil 6 - iyul 341-8-109-Q/22 Angor tuman hokimligi

Angor tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 27-sentyabrdagi PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24 va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentyabrdagi PF–6075-son Farmonida mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Angor tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Matbuot xizmati G.Jumayeva mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Mamayusupov zimmasiga yuklatilsin.

Hokim **SH.B.ABDULLAYEV**

Angor tuman hokimining
2022 yil 6 iyuldagi
341-8-109-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Angor tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Angor tumani hokimining «Angor tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limni to‘liq qamrab olish yuzasidan umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida» 2019-yil 29-avgustdagi Q-6199-son qarori.

2. Angor tuman hokimining «Angor tumanida dam olish kunlari savdo yarmarkalari tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2019-yil 27-dekabrdagi Q-7258-son qarori.

3. Angor tuman hokimining «Maxsus texnikalar orqali iste’molchilarga toza ichimlik suvi yetkazib berish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2020-yil 29-apreldagi Q-605-son qarori.

4. Angor tuman hokimining «2021 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida»gi 2020-yil 26-sentyabrdagi Q-1025-son qarori.